

UDK: 8.81-13.(321)

**SUD-HUQUQIY MATNLARDA (HUKM, QAROR, DA'VONOMA)  
EKSTRALINGVISTIK OMILLARNING MATN TUZILISHIGA TA'SIRI****Ko'chimova Shaxlo Nuriddin qizi,***Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*<https://orcid.org/0009-0007-3565-5129>[Shaxlokuchimova@gmail.com](mailto:Shaxlokuchimova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sud-huquqiy matnlar — hukm, qaror va da'vonoma — tizimida ekstralingvistik omillarning matn tuzilishiga ta'siri lingvistik-pragmatik metodologiya asosida o'rganiladi. Ijtimoiy-kommunikativ kontekst, huquqiy tartibga solish talablari, adresat omili va institutsional muhit kabi ekstralingvistik determinantlarning yuridik matnlar kompozitsion-semantik qurilishiga ta'sirini tahlil qilish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Yozma nutqning ijtimoiy konteksti, madaniy omillari va huquqiy sistema bilan bog'liqligi, ularning barchasi yuridik yozma nutqning samarali va to'g'ri ishlatilishiga ta'sir etuvchi muhim faktorlar sifatida e'tiborga olinadi. Yuridik yozma nutqni tushunish va o'rganish, shuningdek, uning kelajagini bashorat qilish huquqiy professionallar, talabalar va mutaxassislar uchun zaruriy hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** ekstralingvistik omillar, yuridik matn, hukm, qaror, da'vonoma, institutsional diskurs, pragmatika, matn tuzilishi, kommunikativ kontekst.

**Аннотация.** В данной статье исследуется влияние экстралингвистических факторов на текстовую структуру судебных-правовых текстов — приговора, постановления и искового заявления — на основе лингвопрагматической методологии. В качестве основной цели определён анализ воздействия социально-коммуникативного контекста, требований правового регулирования, адресатного фактора и институциональной среды на композиционно-семантическое построение юридических текстов. Социальный контекст письменного дискурса, культурные факторы и его связь с правовой системой считаются важными факторами, влияющими на эффективное и правильное использование юридической письменной речи. Понимание и изучение юридической письменной речи, а также прогнозирование ее будущего, имеет важное значение для юристов, студентов и специалистов.

**Ключевые слова:** экстралингвистические факторы, юридический текст, приговор, постановление, исковое заявление, институциональный дискурс, прагматика, структура текста, коммуникативный контекст.

**Abstract.** This article investigates the influence of extralinguistic factors on the textual structure of judicial-legal texts — verdicts, resolutions and statements of claim — based on a linguo- pragmatic methodology. The main objective is to analyze the impact of socio-communicative context, legal regulation requirements, addressee factor and institutional environment on the compositional-semantic construction of legal texts. The social context of written discourse, cultural factors, and its connection to the legal system are considered important factors influencing the effective and correct use of legal writing. Understanding and studying legal writing, as well as predicting its future, is essential for lawyers, students, and professionals.

**Keywords:** extralinguistic factors, legal text, verdict, resolution, statement of claim, institutional discourse, pragmatics, text structure, communicative context.

**Kirish.** Yuridik yozma nutq zamonaviy huquqiy tizimning ajralmas qismi bo'lib, huquqiy munosabatlarni tartibga solish va huquqiy axborotni etkazish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Har qanday ijtimoiy tizimda, ayniqsa huquqiy sohada, yozma nutq orqali to'g'ri va aniq fikrlarni ifodalash zarurati paydo bo'ladi. Yuridik yozma nutq,

o'zining maxsus qoidalari va strukturalari bilan, nafaqat huquqiy muammolarni hal etishda, balki ijtimoiy adolatni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy tilshunoslikda matn nazariyasi va diskurs tahlili sohasida ekstralingvistik omillarning lingvistik belgilar tizimiga ta'siri masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yuridik diskurs doirasida bu muammo o'zining ko'p qirrali mohiyati bilan tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qilmoqda. Chunki huquqiy matnlar — oddiy muloqot emas, balki ijtimoiy-huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi institutsional kommunikatsiyaning eng yuqori shaklidir.

Sud-huquqiy matnlar — hukm, qaror va da'vonoma — o'zining qat'iy reglamentlashgan tuzilishi, maxsus terminologiyasi va huquqiy majburlash kuchi bilan ajralib turadi. Ushbu matnlar yuzaga kelishida nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik omillar — ijtimoiy sharoit, huquqiy me'yorlar, protsessual tartib, adresat xususiyatlari, muloqot vaziyati va institutsional muhit — hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekiston tilshunosligida yuridik matnlarning lingvistik tadqiqi (Sh.Ko'chimov, M.Yo'ldoshev, B.Mengliyev, D.Xudoyberdiyeva, N.Mahmudov) bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ekstralingvistik omillarning matn tuzilishiga ta'sirini maxsus o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar hali yetarli emas. Mazkur maqola ana shu bo'shliqni qisman to'ldirish maqsadida yozilgan.

Tadqiqotning maqsadi: sud-huquqiy matnlar (hukm, qaror, da'vonoma) ning tuzilish-mazmun xususiyatlarini shakllantirishda ekstralingvistik omillarning o'рни va funksiyalarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari: (1) ekstralingvistik omillarning nazariy tipologiyasini belgilash; (2) hukm, qaror va da'vonoma matnlarining tuzilish modellari tahlili; (3) ekstralingvistik determinantlarning matn segmentlariga ta'sirini empirik asosda isbotlash.

Tadqiqot metodlari: matn tahlili, diskurs-tahlil, qiyosiy-tipologik tahlil, kontekstual tahlil, statistik kuzatish.

**Adabiyotlar tahlili.** Ekstralingvistik omillar muammosi tilshunoslikning turli yo'nalishlarida o'rganilgan. Sotsiolingvistikada W.Labov [1] til va ijtimoiy muhit o'rtasidagi munosabatni tadqiq etgan; pragmatikada J.Austin [2] va J.Searle [3] nutq aktlari nazariyasini ishlab chiqqan; matn lingvistikasida E.Beaugrande va W.Dressler [4] matn kommunikativligi mezonlari sifatida ekstralingvistik omillarni ko'rib chiqqan.

Yuridik lingvistika sohasida P.Tiersma [5] ingliz tilidagi yuridik matnlar til xususiyatlarini, M.Galdia [6] esa huquqiy kommunikatsiyaning pragmatik asoslarini tahlil qilgan. Rus tilshunosligida N.D.Golev [7] yuridik lingvistikaning metodologik asoslarini ishlab chiqish borasida muhim hissa qo'shgan.

O'zbek tilshunosligida Sh.Ko'chimov [8] huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy jihatlarini, M.Yo'ldoshev [9] badiiy matn va ekstralingvistik muhit munosabatini, B.Mengliyev [10] matn pragmatikasini, N.Mahmudov [11] esa

tilshunoslik va ijtimoiy hayot munosabatlarini o'rgangan. Biroq yuridik matnlar ekstralingvistik alohida tadqiqot ob'ekti sifatida ko'rilmagan.

Ekstralingvistik omillar deganda matn yaratilishi va idrok etilishiga ta'sir ko'rsatuvchi til tashqi (eksternal) determinantlar tushuniladi. Ular quyidagi guruhlarni o'z ichiga oladi: (1) situativ-kommunikativ omillar (muloqot vaziyati, kanal, vaqt, joy); (2) sotsial-institutsional omillar (huquqiy tartibga solish, muassasa talablari, rasmiy maqom); (3) adresat omillari (qabul qiluvchining huquqiy maqomi, bilimlari, huquqlari); (4) psixologik-kognitiv omillar (muallif niyati, maqsad, munosabat).

### **Tahlil va natijalar.**

#### ***1. Hukm matnlarida ekstralingvistik omillarning ta'siri***

Hukm — sudning aybdorlik yoki begunohlik to'g'risidagi yakuniy qarori bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 465-moddasiga muvofiq qat'iy belgilangan kompozitsion tuzilishga ega: kirish qismi, bayonot qismi va rezolutiv (hukmlovchi) qism.

Hukm matnining tuzilishini bevosita shakllantiradigan ekstralingvistik omillar quyidagilardir:

Institutsional-huquqiy omil: JPK me'yorlari hukm tuzilishini qat'iy tartibga soladi. Bu esa matnning quyidagi obligator segmentlarini belgilaydi: sud va ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumot, dalillarning baholash qismi, qonun moddalari ko'rsatilishi, jazo miqdori. Masalan, «...[familiya] sudlanuvchi o'ziga qo'yilgan ayblovdan aybli deb topildi va unga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining [...] -moddasi [...] -qismi bilan jazo tayinlandi» tarzidagi formulalar institutsional kontekst ta'sirida yuzaga kelgan.

Adresat omili: Hukm bir vaqtning o'zida bir nechta adresatga yo'naltirilgan: (a) sudlanuvchi — uning huquqlari va majburiyatlari belgilanadi; (b) apellatsiya instansiyasi — dalillarning batafsil bayon etilishini talab qiladi; (c) ijro organlari — hukmni bajaruvchi. Bu ko'p adresatlik matn segmentlarining semantik differentsiallanishiga olib keladi.

Psixologik-kognitiv omil: Sudya nutq aktining performativ tabiati («... deb hukm qiladi», «... bilan jazolansin») modal-pragmatik markerlarda namoyon bo'ladi. Bu deontik modallik matn tuzilishida alohida qatlam hosil qiladi.

#### ***2. Qaror matnlarida ekstralingvistik omillarning ta'siri***

Qarorlar sud va prokuratura faoliyatining turli bosqichlarida qabul qilinadi va ularning funksional farqi bevosita matn tuzilishiga ta'sir qiladi. O'rganilgan 45 ta qaror matni tahlili asosida quyidagi ekstralingvistik determinantlar aniqlandi:

Protsessual holat omili: Dastlabki tergov bosqichida qabul qilingan qarorlar (qamashga sanksiya berish, tintuv o'tkazish) da matn ixchamroq bo'lib, asoslash qismi kengaytirilmagan. Sud majlisi bosqichida esa dalillarni baholash qismi kengayadi. Bu holat bir xil tur bo'lgan qaror matnlarida ham tuzilish xilma-xilligini vujudga keltiradi.

Ijtimoiy maqom omili: Prokuratura qarorlarida til-uslub jihatdan imperativ konstruksiyalar ustunlik qiladi («...inobatga olinsin», «...qaytarilsin», «...ko‘rib chiqilsin»). Bu institutsional maqomning lingvistik proyeksiyasidir.

Vaqt omili (temporal determinant): Shoshilinch qarorlar (masalan, tutib olish sanksiyasi) lingvistik darajada qisqartirilgan asoslash bilan farqlanadi. Asosiy matn bloklari formulayar xarakter kasb etadi va individual til elementlari minimallasadi.

### ***3. Da'vonoma matnlarida ekstralingvistik omillarning ta'siri***

Da'vonoma xususiy shaxs (yoki yuridik shaxs) tomonidan sudga yo‘llangan ariza bo‘lib, fuqarolik protsessual qonunchiligida uning majburiy rekvizitlari belgilangan. 60 ta da'vonoma matni tahlili asosida quyidagi ekstralingvistik omillar ta'siri kuzatildi:

Adresat-davlat omili: Da'vonoma muallifi avvalambor sudni manzil (adresat) sifatida ko‘zda tutadi. Bu esa formal etiket formulalarining kengayishiga, huquqiy normalar va kodeks moddalariga aniq iqtibosning majburiylashishiga olib keladi. Matnning strukturali formallasuvi darajasi muallifning advokatlik yoki mustaqillik holatiga qarab farqlanadi.

Iqtisodiy-moddiy omil: Da'vo predmetining moddiy yoki nomoddiy tabiati (pul talabi vs. huquqni tiklash talabi) matnning semantik-tematik tashkil etilishini belgilaydi. Pul talabida raqamli ma'lumotlar bloki kengayadi; nomoddiy talablarda argumentatsion qism dominantlik qiladi.

Emosional-psixologik omil: Da'vonoma muallifligi shaxsiy va professional bo‘lishi matnning registrini belgilaydi. Huquqshunos tayyorlagan da'vonomalarda terminologik zichlik yuqori, ekspressiv leksika minimal; oddiy fuqaro tomonidan yozilganlarda ekspressiv, ba'zan emotsional elementlar uchraydi, protsessual formulalar buziladi. Bu ekstralingvistik omilning matn tekstualligi darajasiga bevosita ta'siri hisoblanadi.

**Muhokama.** Tahlil natijalari quyidagi ilmiy xulosalarga asos beradi. Birinchidan, hukm, qaror va da'vonoma matnlari bir-biridan nafaqat janr, balki ekstralingvistik determinantlar majmui jihatidan ham farqlanadi. Hukm institutsional-huquqiy omil ta'sirida qat'iy segmentlashgan; qaror protsessual holat va vaqt omillariga ko‘proq bog‘liq; da'vonoma esa adresat va psixologik omillar ta'sirida katta variativlikni namoyon etadi.

Ikkinchidan, ekstralingvistik omillar matn tuzilishiga uch darajada ta'sir ko‘rsatadi: (1) makrostruktura darajasida — kompozitsion bloklarning majburiy/fakultativ maqomini belgilaydi; (2) mezostruktura darajasida — abzatslar va mantiqiy-semantik guruhlanishni tartibga soladi; (3) mikrostruktura darajasida — leksik-grammatik tanlov va formulayar ifodalar tizimini shakllantiradi.

Uchinchidan, yuridik matnlar ekstralingvistik omillar ta'sirida o‘ziga xos «ikki kodli» tuzilishni hosil qiladi: bir tomondan, huquqiy reglamentatsiya talablariga javob beruvchi invariant qism; ikkinchi tomondan, konkret kommunikativ vaziyat va adresat xususiyatlariga moslashuvchi variant qism.

Maqoladagi tahlillarni umumlashtirgan holda, matn strukturasi shakllanishini quyidagi funksional bog‘liqlik ko‘rinishida ifodalash mumkin:

$$S_{matn} = f(O_{inst}, O_{adr}, O_{sit})$$

Bunda:

$S_{matn}$  — matnning yakuniy strukturaviy qurilishi;

$O_{inst}$  — institutsional-huquqiy omillar (reglament, qonun talabi);

$O_{adr}$  — adresat faktori (sudya, ayblanuvchi, ijrochi);

$O_{sit}$  — kommunikativ vaziyat (vaqt, shoshilinchlik, maqsad).

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot sud-huquqiy matnlar (hukm, qaror, da'vonoma) ning ekstralingvistik omilini tasdiqladi. Ekstralingvistik omillar — institutsional-huquqiy sharoit, protsessual holat, adresat xususiyatlari, temporal va psixologik determinantlar — yuridik matn tuzilishining barcha sathlariga ta'sir ko'rsatib, uning makro-, mezo- va mikrostrukturasi belgilaydi. Sud-huquqiy matnlarda ekstralingvistik omillarning matn tuzilishiga ta'sirini tadqiq etish natijasida quyidagi umumiy ilmiy xulosalarga kelindi:

Ekstralingvistik omillarning ustuvorligi: Yuridik matn nafaqat til birliklarining yig'indisi, balki muayyan ijtimoiy-huquqiy kontekstning mahsulidir. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, hukm matnlarida institutsional-huquqiy omil, qarorlarda protsessual-temporal (vaqt) omil, da'vonomalarda esa adresat va subyektiv-psixologik omillar matn strukturasi belgilovchi dominantlar hisoblanadi.

Strukturaviy differensiallashuv: Ekstralingvistik omillar yuridik matnning uchta sathida o'z in'ikosini topadi:

Makrosathda — hujjatning kompozitsion qolipi va bloklar ketma-ketligini qat'iyalashtiradi;

Mezosathda — matnning mantiqiy-argumentativ bog'liqligini va abzatslar iyerarxiyasini shakllantiradi;

Mikrosathda — leksik tanlov, terminologik zichlik va modal so'zlarning qo'llanishini tartibga soladi.

“Ikki kodli” tabiat: Sud-huquqiy matnlar strukturaviy jihatdan invariant (o'zgarmas, qonuniy talab qilingan) va variant (konkret vaziyatga moslashuvchi) qismlardan iborat ekanligi isbotlandi. Invariant qism institutsional muhit barqarorligini, variant qism esa huquqiy muloqotning dinamikligini ta'minlaydi.

**Amaliy ahamiyat:** Tadqiqot natijalari yuridik lingvistika sohasidagi nazariy qarashlarni boyitish bilan birga, huquqshunoslik amaliyotida hujjatlar loyihasini

tayyorlash, sud nutqi madaniyatini yuksaltirish va yuridik terminologiyani standartlashtirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Olingan natijalar yuridik lingvistika, matn nazariyasi va huquqiy yozishmalar madaniyatini o'rganish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Kelgusida kompyuter korpus usullari asosida kengaytirilgan miqdoriy tahlil o'tkazish tadqiqotni yanada boyitishi mumkin.

**1-jadval. Ekstralingvistik omillarning sud-huquqiy matnlarga ta'siri**

Matn turi	Asosiy ekstralingvistik omil	Strukturaga ta'sir sathi	Lingvokognitiv va stilistik namoyon bo'lishi
<b>Hukm</b>	Institutsional-huquqiy maqom va davlat irodasi	<b>Makrosath</b> (Qat'iy kompozitsion qolip)	Standartlashgan kantselyarizmlar, deontik modallik (majburiyat), o'tmish zamon fe'llari orqali faktik xulosalash.
<b>Qaror</b>	Protsessual tartib va vaqt (temporal) cheklovlar	<b>Mezosath</b> (Mantiqiy-argumentativ bog'liqlik)	Imperativ (buyruq) konstruksiyalar, huquqiy normalarga havolalar zichligi, xulosalarning mantiqiy ketma-ketligi.
<b>Da'vonoma</b>	Subyektiv-psixologik maqsad va adresat omili	<b>Mikrosath</b> (Leksik-stilistik variativlik)	Terminologik zichlikning emotsional-ekspressiv bo'yoq bilan uyg'unlashuvi, muloqotning persuasiv (ishontirish) funksiyasi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Labov W. Sociolinguistic Patterns. — Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. — 344 p.
2. Austin J.L. How to Do Things with Words. — Oxford: Clarendon Press, 1962. — 168 p.
3. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. — Cambridge: CUP, 1969. — 203 p.
4. de Beaugrande R., Dressler W. Introduction to Text Linguistics. — London: Longman, 1981. — 270 p.
5. Tiersma P. Legal Language. — Chicago: University of Chicago Press, 1999. — 316 p.
6. Galdia M. Legal Linguistics. — Frankfurt am Main: Peter Lang, 2009. — 372 p.
7. Голев Н.Д. Юридический аспект языка в лингвистическом освещении // Юрислингвистика. — Барнаул, 1999. — С. 11–58.
8. Ko'chimov Sh. Huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari (lingvo-yuridik tahlil). Dokt. diss. – Toshkent, 2004. — 349 b.
9. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va ekstralingvistik omillar. — Toshkent: Fan, 2008. — 186 b.
10. Mengliyev B. Matn pragmatikasi. — Toshkent: TDP, 2010. — 142 b.
11. Mahmudov N. Tilshunoslik va ijtimoiy hayot. — Toshkent: O'zbekiston, 2013. — 224 b.
12. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. — Toshkent, 2023 (joriy tahrir).
13. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. — Toshkent, 2023 (joriy tahrir).